

## YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA MA'NAVIY DUNYOSI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14787986>

Maxmitova Dilfuza Saidazimovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligi va ma’naviy dunyosini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ilmiy faollikni rivojlantirishda ilmiy faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ma’naviy kamoloti, sog‘lom ma’naviy ehtiyojshni shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.*

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, ilmiy faoliyat, ijtimoiy faollik, ajdodlar merosi, odob, axloq, vorisiylik, ilm-fan, ijtimoiylashgan jamiyat.

### АННОТАЦИЯ

*В статье научно обоснованы вопросы общественной активности и формирования духовного мира молодежи Узбекистана. Научная деятельность в развитии научной деятельности играет важное роль. Ведь научная деятельность была и останется самым активным направлением государственной политики. Роль молодежи в обществе, ее духовное становление, формирование здоровых духовных потребностей являются одними из актуальных проблем.*

**Ключевые слова:** молодежь, научная деятельность, общественный активизм, наследие предков, этикет, мораль, преемственность, наука, социализированное общество.

### ABSTRACT

*The article scientifically substantiates the issues of social activity and the formation of the spiritual world of the youth of Uzbekistan. Scientific activity plays an important role in the development of scientific activity. After all, scientific activity has been and will remain the most active direction of state policy. The role of youth in society, its spiritual development, the formation of healthy spiritual needs are among the pressing issues.*

**Keywords:** youth, scientific activity, social activism, ancestral heritage, etiquette, morality, continuity, science, socialized society..

## KIRISH

Bugungi yoshlar jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham o'shanday bo'ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta'lim berish, ularni mehr-oqibatli, ilmparvar sahovatlari, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga yetkazish katta avlodning asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i lozim. Ajdodlarimiz merosida an'analarga sodiqlik vorislikning muhim belgisidir. Vorislik o'tmishdan meros bo'lib qolgan. "Voris" so'zi davom ettiruvchi ma'nosini beradi. "Vorislik" - jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangilik bilan eskilik o'rtasidagi zaruriy aloqa bo'lib, inkorni inkor qonunining eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. "Vorislik tushunchasi hodisalarning ob'ektiv aloqasini, o'tmish, hozirgi va kelgusi hodisalarning zaruriy bog'liqligini ifoda etuvchi umumfalsafiy tushunchadir" [1: 204-b.]. Vorislik o'tmish merosiga tayanib taraqqiyotni yuksak bosqichga ko'tarish, taraqqiyotdagи uzlucksiz aloqa va bog'lanishni ta'minlashdir. Yoshlearning ijtimoiy faolligi va ma'naniy dunyosini o'rganish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylitamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

Xalqimiz azal-azaldan kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili asosida yashab keladi. Odamlararo munosabatlarda yosh kattaligi muhim axamiyat kasb etadi. Katta yoshli odamlarning fikr-mulohazalari jamoaviy qaror qabul kilishda asos bo'lib kelgan. Keksalar demografik qatlama sifatida o'z ijtimoiy mehnat faoliyatini muayyan darajada ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra cheklab oila yoki mahallaga, o'z tengdoshlari doirasiga ko'chirib yashovchilar tushuniladi. Keksalar zimmasiga ajdodlarga xos turmush tarzi, ma'naviyat, madaniyatni yosh avlod tafakkuriga singdirishdan iborat ijtimoiy mas'uliyat yuklangan [2, 268-b.].

Insonni baxtli qilishning, uning og'irini engil qilishning, odamzodni urushi qirg'inbarotlardan, turli milliy, irqiy, siyosiy kelishmovchiliklardan asrab qolishning qanchadan-qancha yo'llari, konsepsiyalari, vositalari ishlab chiqildi, diniy, dunyoviy ta'limotlar yaratildi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Biroq shak-shubhasiz, insoniyat taraqqiyotiga o'zining salmoqli xissasini qo'shgan o'sha yangiliklaru ta'limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchunchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko'rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo'layotgan baxtsiz insonlar xali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo'lishi davom etmoqda. Aslida, "jamiyat ehtiyojlariga ko'ra axloqiy jihatdan saqlanib borsa, u ijtimoiylashadi" [3: 29-b.]. Aholisi ijtimoiylashgan jamiyat kuchli

jamiyatdir. Zero, kuchli jamiyat – bu inson huquqlari va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarni ustuvor biluvchi va inson omilini ro‘yobga chiqaruvchi jamiyatdir [4, 142-b.].

Jamiyat ma’naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog‘lom ma’naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak-shubhasiz, yuqorida savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma’naviy ehtiyojini shakllantirish o‘ta murakkab va ma’lum vaqt ni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga moyillik bo‘lishi lozim. Bu esa, ko‘proq oila, mahalla, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiylar tarzda aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rnak va ibrat masalasiga bog‘liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihatni yon-atrofimizda, dunyoniboshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma’naviy “ne’matlar” saviyasiga bog‘liq. Ma’lumki, “sadizm” iborasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740-1814 yillar) nomi bilan bog‘liq. Sadizmning ma’no-mohiyati-jinoiy buzuqlik, yostiqdoshiga jismoniy azob etkazilgan taqdirdagina to‘la-to‘kis xuzur qilish, haddan tashqari shavqatsizlik, boshqalarning azoblanishidan xuzurlanish demak. Taniqli adib M. Shoxanov ta’kidlaganidek, de Sad asarlarida tasvirlangan ma’naviy qashshoqlik, ashaddiy shavqatsizlik manzaralari faqat la’natlashga loyiq. O‘z onasini zo‘rlagan murtad, qizini o‘ziga o‘ynash tutib, so‘ng uni murdasini ovloq joyga eltilib tashlaguncha yalab-yulqab borgan vosvos ota xaqidagi parchalarni o‘qishni o‘zi ham azob. Shunday bo‘lsa-da, de Sad kitoblarini o‘qishga mushtoq bo‘lgan kitobxonlar juda ko‘p [5, 128-b.].

Ammo, o‘zbek xalqi o‘z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida xurmat va e’zozga ega bo‘lgan xalq hisoblanadi. Bu - e’tirof etilgan aksioma [6, 87-b.]. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi shuhratiga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Biz ko‘pincha sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish to‘g‘risida gapiramiz, uning zarurligi xususida o‘z muloxazalarimizni beramiz – bu to‘g‘ri. Ammo, yana shu ham ma’lumki, jahon amaliyotida sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishning umume’tirof etilgan yagona yo‘li yo‘q. Bunday ehtiyoj, bir tomonidan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo‘lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomonidan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Demak, eng avvalo, kattalarda shaxsiy namuna bo‘lishi lozim. Ijobiy shaxsiy namuna - talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin egallashi mumkin bo‘lgan metod bo‘lib, shaxsga shaxs orqali ta’sir etishning eng ob’ektiv yo‘li hisoblanadi. Yoshlar balog‘at yoshiga etib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish,

o‘rganish jarayonida o‘qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo‘ni-qo‘slniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o‘zlarini yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o‘zlarini mag‘rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o‘qishni o‘rganishdan oldin taqlid qilishni o‘rganadi». Taqlid qilish orqali yoshlarning o‘z tajribasi qo‘silib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo‘la boshlaydi.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Bu qalb ma’naviy ideallarni ustun ko‘radi. Shu ma’noda “Ma’naviy ideal - Insonning etuklik mezonidir” [7, 138-b.]. Olimlarning fikricha, ma’naviy ideal, oxir oqibatda shaxsda fuqarolik hissining umum davlat darajasida shakllanishiga olib keladi [8, 272-b.].

Yoshlarning shakllanish jarayoni to‘g‘ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli ko‘p bo‘ladi. Virtual dunyoda inson qalbida xali to‘la anglab etilmagan qandaydir g‘ayriodatiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahlil etiladi. Yana shu narsa ma’lumki, virtual dunyoda inson ma’naviy javobgarlikni xis etmaydi. Xattoki, mutaxassislarning ta’kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag‘rida yaratilishi atom bombasining kashf eshilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarnizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o‘ylaymiz: birinchidan, undaylar o‘zining mustaqil ma’naviy qiyofasiga ega emas. Natijada “chetda”gi narsalar uni o‘ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog‘i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga ehtiyoj yo‘q. Shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo‘yadi.

Tarbiya tarixdan ma’lumki, har bir yosh, u shoh yoki oddiy fuqaro farzandi bo‘lishidan qati nazar hunarning bir necha turini o‘rganishga yo‘llangan. Bu yozilmagan qonunga barcha birdek rioya qilgan. Shunga ko‘ra Beruniy insonning har tomonlama kamolga etishishida ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishiga e’tibor bergen. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul Haqoyiq», Sa’diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Davoniyning «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning barchasida yoshlarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda allomalar merosining o‘rni, ma’naviy barkamol shaxsga xos fazilatlarni ta’riflash, ayniqsa, mehnat ahlini ulug‘lash, yosh avlodning kasb-hunarni egallahshga undash, ustoz-shogird talablari va tamoyillari muhim vazifa

sifatida keltirilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan mutafakkirlarning barchasi o‘zining ma’naviy-axloqiy asarlarida turli kasb egalarining ta’rifini beradi. Masalan, Kaykovus oilada otalik burchi va vazifasiga alohida ahamiyat berar ekan, ota-onan farzand tug‘ilganida avvalo unga yaxshi nom qo‘yish, undan keyin aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o‘qitish, ulg‘aya boshlaganda kasb-hunar o‘rgatish kerak, deydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir ota-onan farzandi haqqini bajargani deb hisoblaydi [9, 83-b.].

«Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ etkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilonning (tikanli buta) maktublar, dostonlar, xotiralarni o‘qib xalqlarimizning orzu-armonlarini, tarixini, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy qarashlarini bilib olamiz. O‘z faoliyati, ilmiy va tarbiyaviy merosi orqali xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy qarashlari va bilimlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ inson, yirik olimlardan biri Ahmad Donishdir.

Ahmad Donish kasb va hunarning farzandlarga qay darajada zarurligi haqida gapirar ekan, inson bolaligida o‘z vaqtini o‘yin-kulgiga bag‘ishlaydi, lekin ulg‘aygan sari hayotni kuzata boshlaydi va unda mehnat qilishga zaruriyat paydo bo‘ladi. Pirovardida mehnat qilish va kasb-hunarga ega bo‘lishga ahd qiladi. Bu yo‘lda u qiyinchiliklarga duch kelishi, lekin orqaga chekinmaslikni maslahat beradi. Inson bolasi onasidan tug‘ilib, uning quchog‘ida o‘sadi, elib yugurishga, o‘yinga qiziqadi. Yiqilib-surilishi, o‘rnidan turish-o‘tirish bilan bir necha yoshga kiradi. Kundankunga yoshi ulg‘ayib, bolalik davrini o‘tkazadi. So‘ngra dunyodagi zeb-ziynatlar, noz-ne’matlar, o‘yin-kulgilarni ko‘radi va shular bilan shug‘ullanadi. Ko‘ngliga har bir ishda martabasini zamondoshlaridan orttirish havasi tushadi. Bularni qo‘lga kiritish uchun boylik kerakligini: dunyo davlatini oltin, kumushsiz egallab bo‘lmasligini bilib, shularni topish chorasisiga kirishadi, - deb ta’kidlaydi [10, 24-b.]. Adib o‘zining ma’naviyat va ma’rifat haqidagi mazmunan boy, serqirra ta’limotida uqtirganidek, ma’naviyat insonga xos bo‘lgan ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs rivojlanishi va kamolotining asosiy omili hamdir. Demak, ma’naviyat insonga xos fazilat bo‘lib, avlodlar merosi va namunasi, bilim, odob-axloq. ta’lim-tarbiya asosida shakllanib, shaxsning hayoti, faoliyatiga maqsad va yo‘nalish beradi. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar professor G.K.Masharipovaning ilmiy izlanishlarida ham o‘rganilgan, ularning maqolalarini o‘qishni ham tavsiya qilamiz [11, 169-174-b.; 12, 43-50; 13, 69-72-bb.].

## XULOSA

Yangi O‘zbekistonda mulkchilikning turli shakllari rivoj topib tadbirkor va ishbilarmonga keng yo‘l ochildi, fuqarolarda kasb-korga muhabbat va mulkka egalik

tuyg'usi uyg'onmoqda, bozor munosabatlariga mos faoliyat turlari rivojlanib, respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2021. - 302 b.
2. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.
3. Клакхон. Зеркало для человека. Введение в антропологию. Санкт-Петербург, «Евроазия», 1998. - Стр. 229.
4. Masharipova G.K. The Role Of The Development Of Civilization Of Natural Scientific, Socio-Philosophical And Spiritual Information Of Scientists Of The Khorezm Ma'mun Academy. Monography. - Taemeer Publications LLC (Michigan, USA/ Hyderabad, India), 2024. - 242 p.
5. Aytmatov Ch., Shoxanov M. Cho'qqida qolgan ovchining oxu zori. - Toshkent, "Sharq", 1998. - 128-b.
6. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalari. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
7. Ионин Л.Г. Социология культуры. – Москва: «Аспект», 2004. - Стр. 272.
8. Шумпетер Ж. Теория экономического развития. – Москва: Экономика, 1982. - С. 180-182.
9. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriёт-matbaasi, 2022. - 224 b.
10. Бабашев Ф.А. Нравственно-просветительские взгляды ученых Хорезмской академии Маъмуна: - Автореф. дисс. канд.пед.наук. – Ташкент, 2000. - 32 с.
11. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174.
12. Masharipova G.K. The Problem Of Education Of Youth Of New Uzbekistan By Teaching The Heritage Of Scientists Of The Khorezm Academy Of Mamun. Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 2, Issue 11, November-2023 Website: intentresearch.org/index.php/irsj/index - pp. 43-50.

13. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tadqiqot manbalarining asosiy yo'nalishlari. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi. 2024-11/3. - B. 69-72. <http://mamun.uz/uz/page/56>.